

SANOAT ISHLAB CHIQUARISH SALOHIYATI VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH OMILLARI

Xudoyberdiyev Shokir Abdiraxmanovich¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:06.05.2025

Revised: 07.05.2025

Accepted:08.05.2025

Ushbu maqolada sanoat ishlab chiqarish salohiyati va undan samarali foydalanish omillari bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

KALIT SO'ZLAR:

sanoat, sanoat ishlab chiqarishi, mahsulot, salohiyat, boshqarish, personalni boshqarish, mehnat samaradorligi.

KIRISH. “Salohiyat” tushunchasi lotin tilidan kirib kelgan bo‘lib, “potentia” - kuch degan ma‘noni anglatadi. Biroq mazkur tushunchaning yagona umumqabul qilingan ta‘rifi mavjud emas. “Salohiyat” tushunchasi barcha mumkin bo‘lgan imkoniyatlar darajasining jamlanmasini o‘zida ifoda etadi va turli tushunchalarga nisbatan turlicha “salohiyat” so‘zi qo‘llaniladi. Masalan, iqtisodiy salohiyat, tabiiy xom ashyo salohiyati, innovatsiya salohiyati, investitsiya salohiyati, eksport salohiyati, hududiy salohiyat, sanoat salohiyati, ishlab chiqarish salohiyati va hokazo.

“Iqtisodiy salohiyat” – jamiyatning moddiy va inson resurslari bilan ta‘minlanganlik darajasini, ulardan foydalanish bo‘yicha imkoniyatlarning mavjudligini anglatadi hamda ana shu imkoniyatlar miqyosi bilan baholanadi. A.O.Larionov tadqiqotlarida iqtisodiy salohiyat va uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha belgilanadi.

Sanoat salohiyatini oshirish omillari sifatida quyidagilar belgilanadi:

➤ sanoat salohiyatini baholash va sanoat majmuasining qiyosiy ustunligini aniqlash, ishlab chiqarish quvvatlarining texnologik darajasini baholash;

➤ sanoat ishlab chiqarishining diversifikatsiyalashganlik darajasi, yuqori qo‘shilgan qiymatda tarmoqning ulushi va qayta ishlovchi sanoat ishlab chiqarish ulushi;

➤ ishlab chiqarishning innovatsion-imitatsion qobiliyatini baholash, xom ashyo resurslari bilan ta‘minlanganlik darajasi, yuqori malakali kadrlar bilan ta‘minlanganlik hamda marketing holati va boshqalar.

O.V.Bakanach va K.V.Gausning fikricha – “sanoat salohiyati” sanoat korxonalarining raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va yaratishga nisbatan mavjud umumiy qobiliyatlaridir. Mualliflar qayd etishicha, sanoat salohiyati rivojlanishining eng muhim yo‘nalishlari uning yangilanishi, texnologik modernizatsiya, tarmoqlarning jadal rivojlanishi, nisbatan ilg‘or va texnologik munosabatlardir.

I.X.Sogoyev sanoat salohiyatiga birmuncha kengroq yondashadi: “sanoat salohiyati” sanoat tashkilotlarining resurslardan foydalanish natijadorligining mumkin bo‘lgan maksimal imkoniyatlarini ifodalovchi umumlashgan miqdoriy bahosidir. Muallifning qayd etishicha, sanoat salohiyati ahamiyatli darajada yalpi qo‘shilgan qiymatni shakllantirish jarayonida ishtirok etuvchi barcha resurslardan maksimal darajada foydalanish imkoniyatidir.

A.P. Svinsova esa o‘z tadqiqotlarida sanoat salohiyatining mohiyatini ochib berar ekan, uni quyidagicha tasniflaydi:

Fond salohiyati: a) texnik va texnologik salohiyat; b) ilmiy-texnik salohiyat (innovatsion salohiyat va axborot salohiyat); v) investitsion salohiyat (korxonalarining ichki xususiy mablag‘lardan foydalanish salohiyati, investitsion jozibadorlik salohiyati).

Kadrlar salohiyati: a) ijtimoiy salohiyat; b) professional rivojlanish salohiyati;

Mahsulot salohiyati: a) sotilgan mahsulot salohiyati; b) mahsulot sifatining salohiyati; v) korxonani diversifikatsiyalash salohiyati – yangi mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari.

Sanoat salohiyati bilan ma‘no jihatidan yaqin “ishlab chiqarish salohiyati” [productive potential] ham mavjud bo‘lib, L.I.Lopatnikov unga “iqtisodiy tizimning (mamlakat, hudud, kompaniya, korxona) muayyan ishlab chiqarish omillari hajmida mumkin bo‘lgan maksimal ishlab chiqarish hajmi va imkoniyatlar darajasi bo‘lib, u tizimning texnologik taraqqiyot darajasini o‘zida namoyon, - deb ta‘rif beradi.

L.B.Vinnichuk va A.A.Kolobovning fikrlariga ko‘ra, ishlab chiqarish salohiyati quyidagi kompleks omillar yordamida aniqlanadi:

- resurslarning mavjudligi;
- resurslarning miqdori va sifati hamda ular o‘rtasidagi mos nisbatlar;
- tabiiy sharoitlar va xo‘jalik mexanizmi, ishlab chiqarish munosabatlari tavsifi hamda

ishlab chiqarishni tashkil etish shakliga bog'liq holda foydalanilgan resurslar darajasi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, salohiyat tushunchasining yagona umumqabul qilingan ta'rifi bo'lmaganidek, "ishlab chiqarish salohiyati" tushunchasining ham shunday ta'rifi mavjud emas. Shu sababli quyida mazkur tushunchaga nisbatan berilgan turli olimlarning fikrini keltirib o'tish maqsadga muvofiq (1-jadval).

1-jadval .“Ishlab chiqarish salohiyati” tushunchasiga nisbatan berilgan turli ta'rif va mulohazalar

Mualliflar	Berilgan ta'riflar
S.Muravskiy	Salohiyat – kuch, belgilangan maqsadga erishish imkoniyati va qobiliyati bo'lib, ishlab chiqarish salohiyati o'zida resurslar, texnologik jarayonlar hamda ishlab chiqarishning o'zaro faoliyati va tashkil etish shaklini qamrab oladi. Ishlab chiqarish salohiyati – murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, u ko'zda tutilgan ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik darajasida resurs salohiyati (statik unsur), ishlab chiqarish jarayoni (dinamik unsur) va yakuniy mahsulotni qamrab oladi.
V.Svobodin	Ishlab chiqarish salohiyati – yalpi tashkillashtirilgan va texnologik muvozanatlashgan resurslar bo'lib, u ishlab chiqarish qobiliyatini o'zida ifoda etadi.
Y.Vasilenko, G.Danchuk, V.Tyapkin	Ishlab chiqarish salohiyati – muvofiqlashtirilgan va mutanosibli tabiiy va iqtisodiy resurslar bo'lib, u zarur mahsulot ishlab chiqarishdan iborat.
D.Epshteyn	Ishlab chiqarish salohiyati – belgilangan muddatda belgilangan hajmdagi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatidir. Ma'lum ma'noda bu ishlab chiqarish quvvatlariga yaqin bo'lgan tushuncha.
A.Kagan	Ishlab chiqarish salohiyati – obektning rejalashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati bo'lib, bu muayyan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish darajasida amalga oshiriladi.


1-jadvalda keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, mazkur tushuncha ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan barcha imkoniyatlar va qobiliyatlarning yig'indisini o'zida

ifoda etadi.

Ishlab chiqarish salohiyati qator o'ziga xos belgilar bilan farqlanib, ularga quyidagilar kiradi:

- maqsadlilik;
- murakkablilik;
- o'zaro aloqadorlik;
- o'zaro almashuvchanlik;
- qobiliyatlilik;
- egiluvchanlik;
- sinflilik;
- quvvatlilik.

Ishlab chiqarish salohiyatini yanada aniqroq tushunish uchun uni tashkil etuvchi elementlar nimalardan iborat ekanligini aniqlab olish maqsadga muvofiq bo'lib, bu esa mazkur tushunchaning murakkabligini belgilab beradi. Quyida ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy tuzilishi o'z ifodasini topadi (1-rasm).



1-rasm. Ishlab chiqarish salohiyatining tuzilishi

Nazariy tadqiqotlarga ko'ra, "ishlab chiqarish salohiyati" va "sanoat salohiyati" tushunchalari o'zaro juda yaqin tushunchalar bo'lib, sanoat salohiyatini tashkil etuvchilari

quyidagilardan iborat³⁴:

1. Fond salohiyati:

a) texnik va texnologik salohiyat;b) ilmiy - texnik salohiyat:

- innovatsion salohiyat;
- axborot salohiyati;

v) investitsion salohiyat:

- investitsion jozibadorlik salohiyati;
- sanoat korxonalarining xususiy ichki mablag'laridan foydalanishsalohiyati.

2. Kadrlar salohiyati:

a) ijtimoiy salohiyat;

b) professional rivojlanish salohiyati.


3. Mahsulot salohiyati:

a) sotilgan mahsulotlar salohiyati;b) mahsulot sifatining salohiyati;

v) sanoat korxonalarini diversifikatsiyalash salohiyati.

4. Tashkiliy salohiyat.

YE.S. Zambrjitskaya va A.V. Logacheva ishlab chiqarish salohiyati tuzilishini ifodalashda unga korxona nuqtai nazaridan yondashdilar va uni quyidagicha ifodalaydilar (2-rasm).



2-rasm. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatining tuzilishi

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatining tuzilishini tahlil qilish ko'rsatadiki, uning asosini ishlab chiqarish omillari tashkil etadi. Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, ishlab chiqarish salohiyatining o'zagini ishlab chiqarish tushunchasi tashkil etadi. O'z navbatida, salohiyat sanoat tarmog'i yoki sanoat korxonalarining ishlab chiqarish omillari bilan qay darajada ta'minlanganligini ham aks ettiradi.

Ishlab chiqarish salohiyati mamlakat, hudud va tarmoq darajasida o'rganilganda bir-biridan farqlanadi. N.To'xliyevning fikricha, "salohiyat tushunchasi (iqtisodiyotda) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish maqsadida foydalanish mumkin bo'lgan barcha manbalar, imkoniyatlar, vosita va zaxiralarni anglatadi. Makrodarajada yalpi iqtisodiy salohiyat deganda, ichki va tashqi bozorlar talabiga muvofiq milliy iqtisodiyotning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish maksimal mumkin darajadagi qobiliyati tushuniladi".

Ijtimoiy ishlab chiqarish va iste'molning texnik darajasi, hajmi va tarkibi, milliy iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning sifati, shuningdek, hududda va xorijda jamg'arilgan qiymatlar, mehnat va tabiat resurslari hududning yalpi iqtisodiy salohiyatining rivojlanish darajasini belgilaydi.

Ishlab chiqarish salohiyati tushunchasiga berilgan ta'riflar hamda uning tarkibi tahlillaridan kelib chiqqan holda unga quyidagi mualliflik ta'rifi berildi: ishlab chiqarish salohiyati – tabiiy va iqtisodiy resurlarhamda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalangan holda belgilangan muddatda belgilangan hajmdagi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati. Hududning ishlab chiqarish salohiyati tabiiy va mehnat resurslari, asosiy kapital va fan-texnika taraqqiyotining o'zaro ta'siri jarayonida shakllanadi va bu borada asosiy fondlar muhim ahamiyat kasb etadi.

"Sanoat ishlab chiqarish salohiyati" iqtisodiy kategoriya sifatida murakkab tushuncha bo'lganligi bois uning tashkil etuvchilari ham ko'plab elementlardan iborat bo'ladi. Jumladan, A.O.Larionov tadqiqotlarida sanoat salohiyati quyidagi jadvalda ta'riflangan ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi (2-jadval).

2-jadval. Sanoat ishlab chiqarish salohiyatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar		O'qib	Sanoat salohiyati parametrlari
1. Material-texnik salohiyat			
1.1. Aholi jon boshiga sanoat asosiy fondlarining qiymati	s o'm		Hudud sanoatining asosiy fondlar bilan ta'minlanganligini tavsiflaydi

1.2. Sanoat asosiy fondlarining eskirish darajasi	%	Ishlab chiqarish resurslarining holatini tavsiflaydi
1.3. Fond qaytimi	-	Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi
2. Moliyaviy salohiyat		
2.1. Umumiy sanoat korxonalari sonidarentabelli sanoat korxonalari ulushi	%	Hudud sanoati faoliyatining samaradorlik darajasi
2.2. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining 1 so'miga sanoat korxonalarining moliyaviynatijalari	s o'm	Sanoatning rivojlanishi uchun moliyaviy imkoniyat darajasi
2.3. Sanoat korxonalari aktivlariningrentabelligi	%	Sanoat korxonalarining aktivlaridan foydalanish samaradorligi
3. Mehnat salohiyati		
3.1. Iqtisodiyotda umumiy bandlar sonida ishlab chiqarish-sanoat xodimlari ulushi	%	Sanoatning kadr resursi
3.2. Sanoat xodimlarining umumiy sonida oliyma'lumotli mutaxassislar ulushi	%	Sanoatning yuqori malakali ishchikadrlar resursi
3.3. Umumiy bandlar sonida o'rta ma'lumotli mutaxassislar ulushi	%	Sanoatning intellektual resursi
4. Infratuzilma salohiyati		
4.1. Umumiy foydalanadigan temir yo'llarning tig'izligi, 1000 km ² hududga kilometr	k m	Transport infratuzilmasining zichligi
4.2. Qattiq qoplamali avtomobil yo'llarining tig'izligi, 1000 km ² hududga yo'l kilometri	k m	
4.3. Erkin maydonga ega industrial va texnoparklar, sanoat zonalari, tayyor infratuzilma obektlari (gaz, elektrenergiya, suv, kanalizatsiya)	g a	Hududning infratuzilma va yangi ishlab chiqarishlarning joylashuvi uchun zaruriy bo'lgan ma'muriy – huquqiy sharoitlar bilan ta'minlanganligi
5. Investitsion salohiyati		
5.1. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoatning asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi	s o'm	Sanoatning rivojlanishi va modernizasiyalashuviga yo'naltirilayotgan investitsiyalar

		hajmini tavsiflaydi
5.2. Sanoatning umumiy investitsiyalar hajmida bank investitsiyalari ulushi	%	Bank kapitalini jalb qilish samaradorligi darajasi
5.3. Sanoat korxonalarining asosiy kapitaliga umumiy investitsiyalar hajmidan mashina, jihozlar va transport vositalariga investitsiyalar ulushi	%	Xususiy ishlab chiqarish aktivlariga qo'yilmalar ulushi

Ko'rinib turibdiki, olim fikricha, hududning sanoat salohiyatini ifodalash uchun 5 guruh ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin va bu ko'rsatkichlar bir-biri bilan bog'liq hamda bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga yuqorida ta'kidlaganimizdek, bugungi kunda sanoat salohiyatini uning innovasion tashkil etuvchilarisiz tasavvur qilish qiyin. Zero, yangiliklarni joriy etish muddatining qisqaligi, jamisanoat korxonalari tarkibida innovasion sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar ulushining yuqori bo'lishi, texnologik innovasiyalarga sarflanayotgan xarajatlarning salmoqli bo'lishi sanoat salohiyatidan samarali foydalanishda muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Dubkov S., Dadalko S., Fomenok D. Formirovaniye i otsenka eksportnogo potentsiala promishlennixpredpriyatiy. Banko'ski vesnik, KASTRICHNIK 2011. - 29 c.
2. Qayumov A, Nazarova H., Egamberdiyev F., Yakubov O'. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. -T., O'zMU.2004. - 34 b.
3. Larionov A.O. Otsenka promishlennogo potentsiala regiona. Problemi razvitiya territorii. Vip. 2(76).2015. - 46 s.
4. Nazarov SH.X. Metodologicheskiye aspekti povisheniya konkurentosposobnosti regionov / MonografiY.SH.X. Nazarov. -Tashkent: IFMR, 2014. S. 184, 186-189, 201.
5. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
6. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.

7. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya uchenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. – c. 581-587.
8. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq risklarni sug‘urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. 4-7 b.
9. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitie i analiz, 2024. s. 338-345.
10. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug‘urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
11. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvdan o‘tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
12. Qumri Nomozova. O‘zbekistonda tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug‘urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.
13. Bakanach O.V. Tipologiya regionov RF po urovnyu razvitiya promishlennogo potentsiala / O.V. Bakanach, K.V. Gaus // Problemi sovershenstvovaniya organizatsii proizvodstva i upravleniya promishlennimi predpriyatiyami: mejvuzovskiy sbornik nauchnix trudov. - 2012. - № 1. - S. 15-21.
14. Sogoyev I.X. Rol gosudarstva v formirovanii i realizatsii promishlennoy politiki v Severo- Kavkazkom federalnom okruge : avtoref. dis. na soisk. uch. st. kand. ekon. nauk : 08.00.05 / I. X. Sogoyev. – M, 2012. - 29 c.
15. Svinsova A.P. Promishlenniy potentsial: ponyatiye, kriterii, struktura. Ekonomicheskij vestnik UGNTU / pod red. d.e.n. Rodionovoy L.N. // Sb. trudov UGNTU, 2001. S. 103 - 106.
16. Lopatnikov L.I. Ekonomiko-matematicheskij slovar: Slovar sovremennoy ekonomicheskoy nauki. - 5-ye izd., pererab. i dop. –M.: Delo, 2003. - 291 s.
17. Vinnichek L.B., Kolobov A.A. Proizvodstvenniy potentsial: teoriya voprosa. Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika. 7 (190) - 2011. 43 - s.